


### III. SANOAT

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2025- yil yanvar-dekabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 40 087,4 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2024- yilning mos davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi\* 109,1 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatining -10,2 % ga (jami sanoat ishlab chiqarish hajmining 82,8 % ni), Elektr, gaz, bug' bilan taminlash va havoni konditsiyalash sanoatining – 14,5 % ga (jami sanoat ishlab chiqarish hajmining 15,5 % ni) o'sishi kuzatildi.

#### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmiga nisbatan % da)



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash



Ishlab chiqaradigan sanoat




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish


\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

### Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish hajmi, mlrd so'mda




**B**– Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, **C**-Ishlab chiqaradigan sanoat **D**-Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash, **E**-Suv bilan ta‘minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish.

### Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish, FHI\* % da



### Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi, % da



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashi korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 194,4 mlrd soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 % ni tashkil etdi.

**Ishlab chiqariladigan sanoat (qayta ishlash sanoati)**

2025- yil yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi 33 211,5 mlrd soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 82,8 % ni tashkil etdi.

**2025- yil yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan yirik sanoat korxonalari  
tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar-dekabr*	2025-yil yanvar-dekabr
Paxta chigiti, tonna	50 232,8	37 393,9
Paxta tiviti (lint), tonna	1 807,4	1 140,0
Ishlov berilgan suyuq sut, tonna	39 927,0	45 237,0
Yumshoq bugʻdoy va spelta uni, tonna	28 822,7	30 309,5
Tozalanmagan paxta yogʻi, tonna	17 922,3	7 639,4
Tozalangan paxta yogʻi va uning fraksiyalari (kimyoviy modifikatsiya qilinganlaridan tashqari)	9 244,0	2 886,9
Paxta iplari, tonna	50 489,0	45641,6
Mashinada yoki qoʻlda toʻqilgan boshqa trikotaj polotnolar, tonna	4 459,2	6 773,3

*\*2024-yillarning yanvar-dekabr oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan maʼlumotlar asosida shakllantirilgan*

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatda 37 393,9 tonna paxta chigiti (2024-yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan 25,6 % ga kamaygan), 1 140,0 tonna paxta tiviti(lint) (36,9 % ga kamaygan), 45 237,0 tonna ishlov berilgan suyuq sut mahsulotlari (13,3 % ga koʻpaygan), 30 309,5 tonna yumshoq bugʻdoy va spelta uni (5,2 % ga koʻpaygan) hamda 7 639,4 tonna tozalanmagan paxta yogʻi (57,4% ga kamaygan) ishlab chiqarilgan.



## Namangan viloyatining 2025- yil yanvar-dekabr oylarida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati


### 2025- yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Faoliyat turlari	mlrd so'm	ulushi, % da
<b>Ishlab chiqaradigan sanoat</b>	<b>33 211,5</b>	<b>100,0</b>
Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish	8 530,2	25,7
Ichimliklar ishlab chiqarish	1 375,2	4,1
Tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	0,0	0,0
To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	8 304,3	25,0
Kiyim ishlab chiqarish	3 945,1	11,9
Teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	516,3	1,6
Yog'och va po'kak buyumlar (mebeldan tashqari), pohlol va to'qish uchun materiallardan buyumlar ishlab chiqarish	83,8	0,3
Qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish	254,7	0,8
Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	24,0	0,1
Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	14,9	0,0
Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	586,9	1,8
Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish	240,4	0,7
Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	846,8	2,5
Boshqa no metall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	2 211,4	6,7
Metallurgiya sanoati	1 467,4	4,4
Mashina va uskunalardna tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	1 083,6	3,3
Kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish	274,6	0,8
Elektr uskunalari ishlab chiqarish	1 639,6	4,9
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalari ishlab chiqarish	94,2	0,2
Avtotransport vositalari, treylar va yarim pritseplar ishlab chiqarish	34,7	0,1
Boshqa transport uchkunlari ishlab chiqarish	0,9	0,0
Mebel ishlab chiqarish	769,1	2,3
Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	884,8	2,7
Mashina va uskunalarni ta'mirlash va o'rnatish	28,6	0,1

### Ishlab chiqaradigan sanoat texnologik tarkibi


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,5 % ni (2024- yil yanvar-dekabr oylarida – 1,2 % ni), oʻrta-yuqori texnologiyalarni ulushi 7,5 % ni (8,3 %), oʻrta-quyi texnologiyali ishlab chiqarishning ulushi - 17,1 % ni (16,0 %), quyi texnologiyali ishlab chiqarishning ulushi esa 73,9 % ni (74,5 %) tashkil etdi.

#### 2025- yil yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarishning texnologik tarkibi boʻyicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da



#### Elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 6 214,9 mlrd soʻmni (oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 114,5 % ni) tashkil etdi.



**Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish**  
(2025- yil yanvar-dekabr)

	2025- yil	2024- yil	2024- yilga nisbatan, Farqi (+/-)
Elektroyenergiya - mln kVt/s	6 505,6	6 553,4	-47,8
Issiqlik energiyasi – ming Gkal	80,3	144,6	-64,3

**Suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish**

Suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi 466,7 mlrd so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat hajmining 1,2 % ni) tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar-dekabr*	2025-yil yanvar-dekabr*	2024- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, % da*
Tabiiy suv; suvni tozalash va suv ta‘minoti xizmatlari- mlrd so‘m	145,9	196,8	134,8
Oqava suvlarning shlami - mlrd so‘m	13,1	17,1	131,3
Xavfli bo‘lmagan chiqindilarni yig‘ish xizmatlari- mlrd so‘m	73,3	82,2	112,2


**Tuman(shahar)larning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishi**

Tuman (shahar)larning sanoat salohiyatini oshirish bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan izchil choralar natijasida Chortoq tumani (2025- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 118,3 % ga), Pop tumani (115,1 % ga), Chust tumani (114,2 % ga), Yangiqo‘rg‘on tumani (112,7 % ga) hamda Norin tumani (110,4 % ga) sezilarli darajada ishlab chiqarish fizik hajmi indeksining o‘sishi ta‘minlandi.

	Sanoat mahsulotlari (mlrd so‘m)	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2024- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, % da
<b>Viloyat bo‘yicha jami</b>	<b>40 087,4</b>	<b>100,0</b>	<b>109,1</b>
Namangan sh.	11 975,8	29,9	107,8
Mingbuloq	980,3	2,4	109,4
Kosonsoy	1831,5	4,6	107,6
Namangan t.	1936	4,8	108,4
Norin	677,6	1,7	110,4
Pop	989,5	2,5	115,1
To‘raqo‘rg‘on	6 632,3	16,5	107,3
Uychi	2 058,8	5,1	107,3
Uchqo‘rg‘on	1 030,6	2,6	105,2
Chortoq	1 063	2,7	118,3
Chust	3 251,2	8,1	114,2
Yangiqo‘rg‘on	579,1	1,4	112,7

**Tuman(shahar)lar bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish  
hajmi, indeksning o'sish sur'atlari**  
(2025- yil yanvar-dekabr)

(o'tgan- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati % da)




Viloyatda sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Namangan shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 29,9 % ulushini), To'raqo'rg'on (16,5 %), Chust (8,1 %), Uychi tumani (5,1 %), Namangan tumani (4,8 %), Kosonsoy tumani (4,6 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.


Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning hududlarga nisbatan ko'rilganda, To'raqo'rg'on tumanida 26 196,3 ming so'm, Namangan shahrida 16 617,3 ming so'm, Chust tumanida 11 056,5 ming so'm, Namangan tumanida 9 722,6 ming so'm, Uychi tumanida 8 579,9 ming so'm, Kosonsoy tumanida 7 781,1 ming so'm tashkil etib, boshqa tumanlarga nisbatan yuqori ko'rsatkichni tashkil etmoqda.

Tuman (shahar)lar kesimida aholi jon boshiga o'rtacha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining yuqori o'sish sur'atlari Chortoq (2025- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 116,0 %), Pop (113,2 %), Chust (112,0 %), Yangiqo'rg'on (110,6 %), va Norin (108,5 %) tumanlarida kuzatildi. Shu bilan birga, Uchqo'rg'on tumanida (103,4%) o'sishning past sur'atlari kuzatildi.

**Tuman(shahar)larning viloyatdagi jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da**  
(2025- yil yanvar-dekabr)




**Tuman(shahar)lar bo'yicha aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, ming so'mda**  
(2025- yil yanvar-dekabr)




**Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi**

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 5 966,3 mlrd soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan boʻlib, umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi hisobot davrida 14,9 % ni tashkil etdi.

**Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish umumiy hajmdagi ulushi, % da.**



**Hududlar boʻyicha chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarini sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da (2025- yil yanvar-dekabr)**



**2025- yil yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi va o‘shish sur‘atlari**


	Aholi jon boshiga (ming so‘mda)	2024- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, % da
<b>Viloyat bo‘yicha</b>	<b>12 680,9</b>	<b>107,0</b>
Namangan sh.	16 617,3	105,4
Mingbuloq	6 951,2	107,4
Kosonsoy	7 781,1	105,4
Namangan t.	9 722,6	106,1
Norin	3 750,7	108,5
Pop	4 094,3	113,2
To‘raqo‘rg‘on	26 196,3	105,1
Uychi	8 579,9	105,1
Uchqo‘rg‘on	5 417,1	103,4
Chortoq	4 804,5	116,0
Chust	11 056,5	112,0
Yangiqo‘rg‘on	2 372,8	110,6

**Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi**

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 22 154,4 mlrd so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 55,3 % ni tashkil etdi.

Tuman (shahar) lar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Norin (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %) va Yangiqo‘rg‘on tumanlarida (99,9%) kuzatildi. Shu bilan birga, eng kichkina ulush To‘raqo‘rg‘on (9,3 %), Chust (26,1 %), Mingbuloq (36,5 %) tumanlarida kuzatildi.

### Tuman va shaharlarning kichik biznesdagi ulushi, % da (2025-yil yanvar-dekabr)



### Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi

Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining rivojlanishiga tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dasturga kiritilgan 86 ta loyiha bo'yicha 3 018,9 mlrd so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi.

	2025-yil yanvar-dekabr	2024-yil yanvar-dekabr
<b>Loyihalar soni</b>	<b>86</b>	<b>122</b>
Korxonalar soni	64	85
Ishlab chiqarish hajmi (Mlrd so'm)	3 018,9	3 022,9
Yaratilgan yangi ish o'rinlar (birlikda)	923	2 034

**Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan  
sanoat korxonalari**

Bugungi kunda viloyatda 4 300 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 1 455 tasi Namangan shahriga, 292 tasi Kosonsoy, 286 tasi Namangan, 279 tasi Chust, 278 tasi Uychi tumanlariga to'g'ri keladi.

2025- yil yanvar-dekabr oylarida viloyatda 624 ta sanoat sohasida korxonalar yangi tashkil etilgan bo'lib, ulardan 35,4 %i Namangan shahrida tashkil etadi.

**Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan  
sanoat korxonalar soni, birlikda  
(2025- yil yanvar-dekabr holatiga)**

	faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni (birlikda)		yangi tashkil etilgan korxonalar soni (birlikda)	
	2024- yil	2025- yil	2024- yil	2025- yil
<b>Viloyat jami</b>	3 890	4 300	734	624
Namangan sh.	1 455	1 603	202	221
Mingbuloq	110	112	51	23
Kosonsoy	292	326	66	48
Namangan t.	286	304	36	37
Norin	189	249	47	55
Pop	190	210	41	20
To'raqo'rg'on	263	285	42	46
Uychi	278	286	42	40
Uchqo'rg'on	167	201	40	40
Chortoq	160	167	33	25
Chust	279	311	46	34
Yangiqo'rg'on	221	246	88	35